



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 19-mart, № 53 (9224)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



YER YUZINING SAYQALI — SAMARQAND RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIGA QADAM TASHLAMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni hududlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa sohalardagi loyihalar bilan tanishish hamda yangilarini ishga tushirish, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha navbatdagi ustuvor vazifalarni belgilash maqsadida Samarqandga keldi.



Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifini Samarqand shahridagi Yoshlar kreativ parki bilan tanishishdan boshladi.

Bugungi kunda shahar kengayib, yirik megapolisga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda bu yerda yangi aholi turarjoylari, ijtimoiy soha obyektlari tashkil etildi, aholi soni ancha oshdi. Tabiiyki, bunday sharoitda shaharda yashil maydonlarni ko'paytirish, yangi bog' va xiyobonlar, aholi dam olish maskanlarini yaratishga ehtiyoj oshadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida viloyatda har yili 16 million tupdan ortiq daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Joriy yil bahorgi mavsumda ham 6,3 million tup mevali va manzarali daraxt, buta ko'chatlari o'tqazish rejalashtirilib, ayni paytda viloyatning barcha hududlarida bu jarayon davom etmoqda.

O'zbekiston ko'chasida joylashgan sobiq harbiy hospital o'rnidagi 5,4 gektar maydonda 70 milliard so'mdan ortiq homiylik mablag'larini hisobidan Yoshlar kreativ parki tashkil etildi.

Bu yerda madaniy meros obyektlari ro'yxatiga olingan 5 ta bino va inshoot bo'lib, endilikda ulardan yoshlar uchun zamonaviy va raqamli kutubxona, ko'p tarmoqli o'quv markazi, kreativ to'garaklar, sun'iy intellekt, "3D" modellashtirish, robototexnika va kibersport o'yinlari markazlari sifatida foydalaniladi. Axborot-resurs markazi, sport zallari, yer osti ekumuzeyi tashkil etildi.

Yoshlar kreativ parki, ayniqsa, yigit-qizlar uchun nafaqat dam olish maskani,

balki axborot texnologiyalari sohasi va sport bilan shug'ullanish, startap loyihalarni amalga oshirish uchun qulay joy bo'ladi.

Viloyat shaxmat federatsiyasi ham yangi bog'da joylashgan. Federatsiya tomonidan bu yerda o'quv-mashg'ulot yig'inlari, musobaqalar o'tkazish imkoniyati mavjud.

Bog'da bolalar atraksionlari, fitnes zallari, stol tennis zali, tennis kortlari, vorkaut va minigolf maydonlari barpo etilgan. Hududda Nuroniylar maskani, o'ndan ortiq ayvonchalar qurilgan.

Prezidentimiz dastlab "Profi deutsch" nemis tilini o'qitish va imtihon markazi faoliyati bilan tanishdi.

Ushbu loyihaning muhim jihati "Telc" imtihon markazi Markaziy Osiyoda ilk bor Samarqand shahrida ish boshlayapti. Markazda yoshlar nemis tilini o'rganib, xalqaro "Telc" sertifikatini oladi. Sertifikat sohiblari Germaniyada dual kasbiy ta'limda o'qishni davom ettiradi, bandligi ta'minlanadi. Joriy yilda bunday imtihon markazini mamlakatimizning yana beshta hududida ochish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbariga "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasi bo'yicha qilinayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi. Loyiha doirasida 8 — 11-sinf o'quvchilariga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillar chuqur o'rgatiladi. O'quvni muvaffaqiyatli yakunlaganlarga maxsus sertifikat beriladi.

Shuningdek, "Aloqabank" ATB va "Milliy bank" AJ konsultativ markazining tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan yoshlarga imtiyozli kredit ajratish, startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlari, Yoshlar ishlari agentligining

"Ibrat farzandlari", "Mutolaa", "Qizlar akademiyasi" loyihalari bilan tanishildi.

Davlatimiz rahbari yoshlar bilan muloqot qildi, ularning loyihalari bilan tanishdi. Jumladan, "Zamin" xalqaro jamoat fondi tomonidan amalga oshirilayotgan "Eco-schools Uzbekistan" loyihasida ishtirok etayotgan yosh ekofaollar 2026-yil uchun rejalarini haqida so'zlab berdilar.

Yangi O'zbekistonda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarini barpo etyapmiz, yuqori daromadli ish joylari ochilyapti. Biz buni sizlarga — bilimli yoshlarga ishonib qilyapmiz. Buning uchun har daqiqangiz kelajagingiz uchun xizmat qilsin, do'stingiz kitob bo'lsin. Biror bilimni chuqur egallash va to'g'ri yo'lni topish uchun insonga diqqat, sabr-toqat, ishtiyok kerak. Mana shu ishtiyqingiz so'nmasin. Sizlar berayotgan takliflar bizning islohotlarimiz g'oyasiga mos, men har qanday taklif va tashabbuslaringizni qo'llab-quvvatlashga tayyorman, — dedi Prezidentimiz.

Samarqand shahrida bunday zamonaviy ta'lim va dam olish maskanlarini ko'paytirish bo'yicha mas'ullarga topshiriq berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida jamoat transporti uchun olib kelingan zamonaviy elektrobuslar va quvvatlash stansiyasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevralda qabul qilingan "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida hududlarda ham avtotransport xizmatlari yaxshilanib, jamoat transporti yo'nalishlari

kengaytirilmoqda.

Bunda avtobus parklarini zamonaviy talablarga asosida modernizatsiya qilish, yo'nalishlar bo'ylab ekologik toza avtotransport qatnovini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayni maqsadlarda Samarqand shahriga birinchi bosqichda 49 million dollar hisobiga 100 ta zamonaviy elektrobus olib kelindi. "Yutong" rusumli mazkur elektrobuslar 30 o'rinni bo'lib, umumiy sig'imi 75 nafar yo'lovchidan iborat.

Yangi elektrobuslar uchun 4 gektarga yaqin maydonda avtosaroy tashkil etilgan. Bu yerdagi elektrobuslarni quvvatlash stansiyasida bir vaqtning o'zida 50 ta jamoat transportiga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

Elektrobuslar uchun barpo etilgan yopiq turargohda texnik xizmat ko'rsatish uchun mobil ta'mirlash texnikasi ham mavjud. Elektrobuslar shaharning 9 ta yo'nalishida brutto-shartnoma asosida harakatlanib, kuniga 70 mingga yaqin yo'lovchiga xizmat ko'rsatilmoqda.

Loyihaning ikkinchi bosqichida esa yana 250 ta elektrobus xarid qilish nazarda tutilgan. Buning uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan 120 million dollar mablag' jalb qilish rejalashtirilgan. Natijada yoqilg'i sarfi 32 ming litr, zararli gazlar miqdori 27 tonnaga kamayadi.

Bugungi kunda avtosaroyda 265 nafar xodim mehnat qilmoqda. Yangi elektrobuslarning olib kelinishi jarayonida esa yana 500 dan ziyod ish o'rinlari yaratiladi.

Prezidentimiz yangi avtobuslarni ko'zdan kechirdi.

Mazkur sohaning iqtisodiy barqarorligini oshirish uchun elektrobuslarga xizmat ko'rsatadigan, ularni ta'mirlaydigan mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha Samarqand tajribasini yaratishimiz kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu zamonaviy o'zida Samarqand shahrida jamoat transportini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, jumladan, avtobuslar harakatini boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish yuzasidan taqdimot o'tkazildi.

Prezidentimiz tashrif asosida mazkur hududga yondosh bo'lgan Gagarin va Rudakiy ko'chalari kesishmasida barpo etilgan yo'lovchilarni ham ko'zdan kechirdi.

Uzunligi 600 metrlilik tashkil etgan tunnel 12 million dollar hisobiga barpo etilgan, bir kunda o'rtacha 50 mingga transport vositasini o'tkazishi mumkin.

Ko'cha bo'yilariga elektron shaklda boshqariladigan tungi yoritish tizimi, yer osti piyodalar yo'lagi barpo etilgan.

Tunnel Xitoy va Turkiya qurilish kompaniyalari bilan hamkorlikda bunyod etildi. Devorlari zamonaviy qurilish texnologiyasidan foydalangan holda burg'ulash usuli orqali barpo qilindi.

E'tiborlisi, qurilish jarayonlari transport vositalari harakati to'xtatilmagan holda olib borildi. Hudud ko'kalamzorlashtirilib, manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev jamoatchilik vakillari bilan birgalikda yurtimizga olib kelingan yangi "Hyundai Rotem" yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdda Samarqand shahridan Narpay tumaniga keldi.

Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi nomi bilan atalgan ushbu poyezd mamlakatimizga yetkazib berilishi rejalashtirilgan oltita "Hyundai Rotem" poyezdlaridan birinchisi. Poyezd yetti vagondan iborat, soatiga 260 kilometr gacha tezlikda harakatlanadi.

Oynalari qoraytirilgan oq rangli tarkib O'zbekiston bayrog'ini eslatuvchi moviy, yashil va qizil rangli chiziqlar hamda "Jaloliddin Manguberdi" yozuviga ega. Poyezdning uzunligi 175 metrni, sig'imi esa uchta — VIP, biznes va ekonom toifalarida 390 nafarga yaqin yo'lovchilarni tashkil etadi.

Poyezd O'zbekiston iqlimi uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, changga, juda yuqori va juda past haroratlarga hamda qum bo'ronlarga chidamli tizimlar bilan jihozlangan, uzoq masofalarga mo'ljallangan.

Yaqin orada "Jaloliddin Manguberdi" poyezdi Toshkent — Urganch — Xiva yo'nalishi bo'ylab qatnay boshlaydi. Qatnov vaqti 7 soatni tashkil etishi kutilmoqda.

Safar chog'ida davlatimiz rahbari viloyat faollari, mehnat faxriylari va ilg'or yoshlar bilan samimiy suhbatlashdi.

Yurtimizda bo'layotgan keng ko'lami o'zgarishlar, tobora ko'payib borayotgan yirik loyihalar, odamlar farovonligi va qulayligi uchun amalga oshirilayotgan ezgu tashabbuslar haqida fikr almashildi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

MUBORAK RAMAZON HAYITINI NISHONLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda bu yilgi muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli joylarda mahalliy hokimliklar va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, keksa va nogiron insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, iftorlik marosimlari hamda xayriya tadbirlarini ixcham va tartibli tashkil etishga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi Yangi O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish, inson qadriini yuksaltirish, jamiyatda tinchlik, do'stlik, o'zaro hurmat, saxovat, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilayotganini ta'kidlash lozim.

Ana shunday ezgu va savob ishlarni izchil davom ettirgan holda, muqaddas Ramazon hayitini har tomonlama munosib kutib olish, uning insonparvarlik mohiyatini keng targ'ib etish maqsadida qaror qilaman:

1. Joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni 20-mart — juma kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda **2026-yil 20-mart kuni Ramazon hayiti bayrami** sifatida keng nishonlansin.

2. Quyidagilar:
a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Ramazon hayitini hududlarda xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga hamda Navro'z umumxalq bayramiga uyg'un holda ko'tarinki ruhda nishonlash, bayram kunlarida aholi o'rtasida mehr-oqibat, hamjihatlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan madaniy-ma'rifiy hamda xayriya tadbirlarini tashkil etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

b) Turizm qo'mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Ramazon hayiti kunlarida mo'tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlarga ziyoratlarini tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

3. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi S.U.Umurzakov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri, 2026-yil 17-mart

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Navro'z umumxalq bayrami va muborak Ramazon hayitini nishonlash arafasida xalqimizga xos ezgulik, mehr-oqibat, bag'rikenglik, kechirimli bo'lish kabi oliyanob fazilatlarini namoyon etgan holda hamda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig'i sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmonnini imzoladi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan **392** nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning **223** nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, **82** nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, **34** nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashirildi.

Shuningdek, **53** nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning **3** nafari chet el fuqarolari, **26** nafari ayol, **14** nafari 60 yoshdan oshgan erkaklar, **166** nafari yoshlar hamda **24** nafari taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA.

YER YUZINING SAYQALI – SAMARQAND RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIGA QADAM TASHLAMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Narpayga kelgach, Prezidentimiz gidroponika usulida tashkil etilgan qulupnaychilik issiqxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Samarqandda azaldan dehqonchilik madaniyati rivoj topgan. Yer va suvdan unumli foydalanish bo'yicha tajriba katta. Narpay tumanida ham har qariyb yer maydoni va mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, ilg'or agroteknologiyalarni joriy etishga e'tibor ortib bormoqda.

Bugun gidroponika usulida mahsulot yetishtirish amaliyotiga talab katta. "Narpay qulupnay" korxonasi ana shunday innovatsion yondashuvni amaliyotga tatbiq etib, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishayotgan ilg'or tadbirkorlik subyektlaridan biri hisoblanadi.

Loyihaning umumiy qiymati 650 ming dollarni tashkil etib, bir gektar maydonda zamonaviy issiqxonada barpo etilgan. Mazkur issiqxonada yiliga 50 tonna qulupnay yetishtirish imkoniyati mavjud.

Ayni paytda korxonada "Narpay qulupnaylari" brendi ostida mahsulotlarini mahalliy yirik savdo tarmoqlariga yetkazib bermoqda. Bu esa ichki bozorni sifati va ekologik toza mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Gidroponika texnologiyasi asosida qulupnay tuproqsiz, maxsus ozuqaviy eritmalarni yordamida parvarishlanadi. O'simlik ildizlari yerda emas, balki suvni yaxshi o'tkazuvchi kokos qipig'i muhitida rivojlanadi. Bunda qulupnay zarur mineral moddalarni to'g'ridan-to'g'ri suv orqali qabul qiladi. Bu esa o'simlikning energiya sarfini kamaytirib, o'sish jarayonini tezlashtiradi. Hosildorlik an'anaviy usullarga nisbatan bir necha baravar yuqori bo'ladi.

Shu bilan birga, gidroponika texnologiyasi kichik maydonda katta hajmda mahsulot yetishtirish imkoniyatini yaratadi. Eng muhimi, tuproqdan foydalanilmasligi tufayli suv sarfi 80 foizgacha kamayadi. O'simlik kasalliklari xavfi past bo'lgani sababli kimyoviy vositalardan foydalanish minimal darajaga tushiriladi. Bu esa mahsulotning ekologik tozaligini ta'minlashga xizmat qiladi va bugungi kun talablariga to'liq javob beradi.

Issiqxonada suv tejankor texnologiyalar joriy etilgan. Xususan, yomg'ir suvini to'plash va undan samarali foydalanish maqsadida katta sig'imli suv havzasi barpo qilingan. Shuningdek, avtomatlashtirilgan gidroponika uskunalar, quyosh panellari va energiya tejankor yoritish tizimlari o'rnatilgan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yil davomida barqaror yetkazib berishni ta'minlashda bunday loyihalarning ahamiyati alohida ekani ta'kidlandi. Tadbirkorning istiqbolidagi rivojlanish rejalarini haqida ham ma'lumot berildi.

Xususan, kelgusida loyihani kengaytirish, qo'shimcha ravishda 60 gektar maydonda yangi issiqxonalar barpo etish rejalashtirilgan. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi yiliga 300 ming tonnagacha oshadi. Yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Davlatimiz rahbari bunday usuldagi issiqxonalarini aholi xonadonlarida ham ko'paytirish orqali barqaror daromad manbalarini yaratish muhimligini ta'kidladi.

Bugun barcha sohada bo'lgani kabi mazkur yo'nalishda ham sun'iy intellektdan samarali foydalanish zarur. Agar ishlar to'g'ri tashkil etilib, odamlarni bu ish bilan shug'ullanishga o'rgatsak va buni Narpay tajribasi sifatida keng ommalashtirsak, xalqimiz gidroponika usulida yil davomida hosil yetishtirib bozorni ham to'ldiradi, yaxshigina daromad ham qiladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz Narpay tumanida joylashgan "Maroqand sifat" klasteri tizimida chiqindisiz texnologiya tamoyili asosida ish olib borayotgan korxonaga faoliyati bilan tanishdi.

Klasterida yetishtirishdan tortib, uni chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq qiymat zanjiri shakllantirilgan. Xususan, paxta va urug'lik yetishtirish, yog'-moy ishlab chiqarish, tola va kalava ip tayyorlash, tizimida, tayyor kiyim-kechaklar ishlab chiqarishni qamrab olgan 25 million dollarlik loyihalar amalga oshirilgan. Bunday yondashuv qishloq xo'jaligi va sanoatni uzviy bog'lash orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkonini bermoqda.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida korxonaga kalava ip ishlab chiqarish bo'yicha yiliga 5,5 ming tonna, tayyor trikotaj mahsulotlari bo'yicha esa 1 million dona quvatga ega bo'ladi. Mazkur ko'rsatkichlar 10 million dollarlik eksport salohiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa klasterning ichki va tashqi bozorlardagi o'rini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Korxonaga faoliyatining yana bir muhim jihati aholi bandligini ta'minlashga qo'shayotgan hissasidir. Ayni paytda bu yerda 1 mingta doimiy ish o'rni yaratilgan bo'lsa, mavsumiy ishlar davrida yana 3 ming nafar aholi ish bilan ta'minlanmoqda. "Maroqand sifat" klasterining mato qoldiqlarini qayta ishlash orqali kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonasi ilg'or va samarali tashabbuslardan biri hisoblanadi.

Loyiha tarkibida biolaboratoriya hamda tikuv sexlari faoliyat yuritmoqda. Bu yerda ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, tikuv sexlarida foydalanib bo'lingan mato qoldiqlari tashlab yuborilmaydi. Ular zamonaviy, yuqori tezlikda ishlovchi uskunalar orqali qayta ishlanib, yana kalava ip holatiga keltiriladi. Ushbu yo'nalishda yillik tola ishlab chiqarish quvvati 5 ming tonnani tashkil etadi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur loyihaning umumiy qiymati 7 million dollar bo'lib, u 3,3 gektar maydonda joylashgan. Korxonada 500 nafar aholining doimiy bandligi ta'minlangan. Shu bilan birga, ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalarning joriy etilgani uning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirmoqda.

Hozirda korxonaga hududida quyosh panellari o'rnatilgan bo'lib, ular orqali ishlab chiqarish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanilmoqda. Bu korxonaning energiya xarajatlarini kamaytirish bilan birga "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi va tikuv sexida mehnat

qilayotgan xodimlar bilan samimiy suhbat qurdi.

Sizlar bilan uchrashganimdan mamnunman. Bu yerda yaratilgan sharoitlar, tashkil etilgan ish o'rinlari aholining bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilayotdi. Har bir amalga oshirilayotgan loyiha – yurtimizdagi ulkan o'zgarishlarning bir qismi. Albatta, ish o'rinlariga talab oshib bormoqda. Shuning uchun biz yanada faol ishlayapmiz, har bir hududda yangi imkoniyatlar yaratishga harakat qilayapmiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev viloyatga tashrif doirasida hududda yirik loyihalarni ishga tushirish va qurilishini boshlashga bag'ishlangan marosimda ishtirok etdi.

Tadbir doirasida viloyatda oziq-ovqat, yengil sanoat, kimyo va farmatsevtika, qurilish materiallari, metall va mebel sanoati sohalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Davlatimiz rahbari hududning zamonaviy ishlab chiqarish quvvatini, ilg'or texnika va texnologiyalari, sanoat mahsulotlari bilan tanishdi.

Samarqand viloyati mamlakatimiz iqtisodiyotida strategik o'ringa ega hudud sifatida barqaror rivojlanib bormoqda. So'nggi yillarda bu yerda sanoat hajmi izchil o'sib, qulay ishbiarmonlik va investitsiya muhiti mahalliy hamda xorijiy sarmoyalarni keng jalb etishga mustahkam zamin yaratdi. Chet el kapitali istihrokdagi korxonalarining soni yildan-yilga ortib borayotgani bu boradagi ijobiy dinamika yaqqol tasdiqlaydi.

Marosimda shahar va tumanlarda qariyb 7 milliard dollar investitsiya hisobiga 106 ta yangi loyiha ishga tushirish va qurilishga tayyor ekani haqida axborot berildi. Tadbirga videoaloqa orqali yangi qurilayotgan hamda ishga tushirilayotgan loyihalarning mas'ullari ham ulandi.

Ushbu loyihalar viloyat iqtisodiyotining turli tarmoqlarini qamrab olgan. Jumladan, tog'-kon sanoati va geologiya, qurilish materiallari, avtosanoat, kimyo sanoati, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish va turizm sohalarida yangi quvvatlarni ishga tushirish hamda istiqbolli obyektlar qurilishini boshlash nazarda tutilgan.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev loyihalar ijrochilari, mahalliy va xorijiy kompaniyalar vakillari bilan suhbatlashdi, ularning taklif hamda tashabbuslarini tingladi. Bu kabi loyihalar Samarqand viloyatining sanoat salohiyatini yanada mustahkamlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va hududda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lishi ta'kidlandi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, Samarqand viloyatidagi yirik loyihalarni ishga tushirish va yangilarining qurilishini boshlab berdi.

Jumladan, Avstriya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Hindiston va Rossiya bilan hamkorlikda 2 milliard 400 million dollarlik 53 ta loyiha ishga tushdi.

Shuningdek, Niderlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Rossiya va Eron bilan hamkorlikda 4 milliard 600 million dollarlik 53 ta loyiha bo'yicha qurilish ishlari boshlandi.

Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi hisobiga 18 mingta yangi ish o'rni yaratish,

13 trillion so'mlik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va buning natijasida 700 million dollarlik eksport salohiyatini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa viloyat sanoatini diversifikatsiya qilish, zamonaviy ishlab chiqarish zanjirlarini kengaytirish va eksport geografiasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shu yerning o'zida Prezidentimizga Narpay tumanida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va nasos stansiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda istiqbolidagi rejalar taqdimot qilindi.

Bugungi kunda tumanagi 8 ta nasos stansiyasi DXSH asosida xususiy sektorga berilgan. O'tgan davrda 21 ta nasos agregati 12,3 milliard so'm investitsiya kiritish hisobiga yangilangani natijasida yillik energiya iste'molini 68,1 million kilovatt-soatdan 34,1 million kilovatt-soatgacha kamaytirishga erishildi.

Umuman, Samarqand viloyatining suv xo'jaligiga yangi ilmiy yondashuvlar joriy qilinmoqda. Bu borada ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida viloyat hokimiga ilmiy maslahatchi birkirilmog'ida. Shuningdek, sohada dual ta'lim yo'lga qo'yilib, 72 nafar talabning suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, gidrotexnika va gidroenergetika, kadastr va ekologiya yo'nalishlarida 6 oyluk uzluksiz amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari bu ishlarni izchil va tizimli davom ettirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Narpay tumanida Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari, avvalo, yig'ilganlarni kirib kelayotgan muborak Ramazon hayiti va qutlug' ayyom – Navro'zi olam bilan chin qalbandan tabrikladi. Samarqandga oxirgi tashrifdan keyin o'tgan to'rt oy davomida mamlakatimiz hayotida katta o'zgarishlar ro'y bergani ta'kidlandi.

Xususan, shu haftaning o'zida Olmaliq shahrida 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi, poytaxtimizda nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning ma'naviy xazinasi bo'lgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ochildi. Ertaga esa Payariq tumanida buyuk hadisshunos ajdodimiz Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilish marosimi o'tkazilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari bugun Vatanimiz qdratini yuksaltirish, har bir oila va har bir inson hayotini yaxshilash bo'yicha yanada katta marralar olinganini, hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar esa bunga mustahkam zamin yaratayotganini ta'kidladi.

Shu bilan birga, bugungi talab kechagi yondashuvlar bilan cheklanib qolmaslikni, ertangi kun vazifalari esa yanada samarali va qat'iy harakat qilishni talab etishi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda Samarqand ihsizlik va kambag'allikdan xoli, investitsiya va eksport kabi barcha yo'nalishlarda namunaviy viloyat bo'lishi shartligi qayd etildi.

Buning uchun viloyat mahallalari infratuzilmasini yaxshilashga 100 million dollar, Urgut tumaniga qo'shimcha 50 million dollar ajratildi. Umuman, viloyatga barcha manbalar hisobidan 11 trillion so'm

yo'naltirilmoqda. Tadbirkorlarga kredit resurslari uchun yana 18 trillion so'm berilayotgani ta'kidlandi.

Ushbu mablag'lar, eng avvalo, tumanlarda ihsizlik va kambag'allikni qisqartirishga, pirovardida esa viloyat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi shartligi qayd etildi.

Yig'ilishda tumanlarning sanoat, servis va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari, yer osti va yer usti zaxiralari, mehnat resurslari, aholining biznes va kasbiy ko'nikmalarini sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish, mahallalar imkoniyatlaridan kelib chiqib, har bir tumaning ichki rivojlanish modelini yaratish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Mazkur tahlillar asosida tuman hokimlari, "mahalla yetiligi" va mahalla banklari resurslarini eng ko'p ish o'rni yaratadigan va byudjet tushumlarini oshiradigan loyihalarga yo'naltirishi lozim.

Ushbu tizim 1-mayga qadar Narpay va Termiz tumanlarida joriy qilinib, butun respublika uchun namuna sifatida tatbiq etilishi belgilandi.

Yig'ilishda Samarqand viloyati rahbariyati oldida kamida 9 foiz iqtisodiy o'sishni ta'minlab, yalpi hududiy mahsulot hajmini 144 trillion so'mdan oshirish, 3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish va eksportni 1,2 milliard dollarga yetkazish vazifasi turgani qayd etildi.

Shuningdek, 100 ming aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 31 ming oilani kambag'allikdan chiqarish va viloyatni ihsizlik hamda kambag'allikdan xoli hududga aylantirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Mavjud imkoniyatlar va ishga solinmag'un salohiyat Narpay, Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on, Paxtachi tumanlari misolida tahlil qilindi.

Ushbu tumanlar va Kattaqo'rg'on shahri viloyat sanoatidagi jami ulushi atigi 10 foizni tashkil qilayotgani qayd etildi. Shu munosabat bilan mazkur hududlarda sanoatni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinib, 1 trillion 200 milliard so'm ajratildi. Bu mablag'ning 800 milliard so'mi sanoat loyihalarini zarur infratuzilma bilan ta'minlashga, qolgan 400 milliard so'mi yo'l, suv, elektr ta'minotini yaxshilash, servis va renovatsiya loyihalariga yo'naltiriladi.

Mazkur mablag'lar hisobidan Kattaqo'rg'on shahrida 40 kilometr masofada joylashgan Ingichka shaharchasiga sanoat va Yangi O'zbekiston qiyofasi kirib borishi, Kattaqo'rg'on shahri markazidagi Narpay kanali ustida 60 yil avval qurilgan ko'priq ham rekonstruksiya qilinishi belgilandi.

Umuman, Narpay, Paxtachi, Payariq, Qo'shrabot, Ishtixon, Kattaqo'rg'on tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida sanoat va servisini rivojlantirish, hududlarga yangicha qiyofa olib kirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Yig'ilishda jahondagi notinchliklar tufayli logistika zanjirlarining uzilishi, neft narxi va transport xarajatlarining oshib borayotgani oziq-ovqat narxlariga ta'sir qilishi tabiiy ekani ta'kidlandi. Shu bilan birga, dunyoda qariyb 100 million turist sayohat uchun tinch va xavfsiz mamlakatlarni qidirayotgani qayd etildi.

Bunday sharoitda oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, turizm va servis sohalaridagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish hokimlarning eng asosiy vazifasi bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

Davra suhbat

EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH – ZAMON TALABI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi 22-mart – Butunjahon suv resurslari kuni oldidan O'zbekiston Ekologik partiyasi Toshkent shahar kengashi bilan hamkorlikda "Suv – hayot manbai" mavzuida davra suhbatini tashkil etdi.

O'zbekiston Milliy universitetida bo'lib o'tgan tadbirida senatorlar, Ekologik partiya vakillari, soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar, talabalar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi. Unda suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, ichimlik suvi zaxiralarni asrab-avaylash, suv tanqisligining oldini olish, shuningdek, suvni tejashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Shuningdek, aholining ekologik ongini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida suvga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbir davomida suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, tejankor texnologiyalarni keng tatbiq qilish hamda mavjud suv manbalarini ifloslanishdan muhofazalashga oid ma'ruzalar tinglandi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar esa ularning bu yo'nalishdagi faolligi tobora ortib borayotgani namoyon etildi.

Xususan, ishtirokchilar suv resurslarini muhofaza qilish hamda ularidan samarali foydalanishga qaratilgan qator amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surdi.

Tadbir yakunida ekologik tashabbuslarda faol qatnashayotgan bir guruh talabalar faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Ta'kidlandiki, mazkur e'tirof yoshlarning ekologik faolligini yanada oshirib, ularni jamiyat hayotida faol qatnashishga rag'batlantiradi.

"Xalq so'zi".

OVCHILIK FAOLIYATI TAKOMILLASHTIRILADI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va o'zgartirishni qayta ko'zdan kechirish haqida qonun taslabki tarzda muhokamadan o'tkazildi.

Senat qo'mitasida



Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ov qilish va ovchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ovchilik xo'jaliklarida bioxilmaxillikni oshirish, ov turizmi infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholini ish bilan ta'minlash borasida ishlar izchil olib borilmoqda.

Mazkur qonun bilan ovchilik guvohnomalari va ov qilish uchun yo'llanmalar berish tartibini takomillashtirish, yovvoyi hayvonlarni ovlash kvotalarini belgilash hamda taqsimlashning ilmiy asoslangan mexanizmlarini

joriy etish, ovni faqat belgilangan ovchilik xo'jaliklari hududlarida yoki erkin ovlash joylarida amalga oshirish tartibini belgilash nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, yovvoyi hayvonlarni tabiiy muhitda ovlash uchun erkin ov qilish joylarining vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi ko'zda tutilgan.

Qonunga muvofiq ovchilik xo'jaliklariga pitomniklarda yetishtirilgan va tabiiy muhitga qo'yib yuborilgan yovvoyi hayvonlar soniga mutanosib ravishda, ularning urush davridan tashqari vaqtlarda ovni uyushtirish

huquqi beriladi. Urchish davrlari esa Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti xulosasi asosida belgilanadi. Ov qilish huquqini rasmiylashtiruvchi yo'llanmalarini maxsus elektron dastur orqali berish tartibi joriy etilib, ovchilik xo'jaliklarida mazkur hujjatlar xo'jalik egalari tomonidan, erkin ov qilish joylarida esa vakolatli organ tomonidan taqdim etiladi. Bundan tashqari, ovchilik xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari elektron onlayn-auksion orqali ajratilib, tegishli shartnomalar ijara muddatiga mos ravishda tuzilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, qo'mita majlisida suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Sohani raqamlashtirish, suvning aniq hisobini yuritish, qishloq xo'jaligida tejankor texnologiyalarni qo'llash, yerlarni lazerli tekislash orqali suv sarfini kamaytirish, irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish, ariq va kanallarni betonlashtirish hisobiga katta hajmda suv tejali, isrof bo'lishining oldi olinmoqda.

Shuningdek, qo'mita majlisida suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Sohani raqamlashtirish, suvning aniq hisobini yuritish, qishloq xo'jaligida tejankor texnologiyalarni qo'llash, yerlarni lazerli tekislash orqali suv sarfini kamaytirish, irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish, ariq va kanallarni betonlashtirish hisobiga katta hajmda suv tejali, isrof bo'lishining oldi olinmoqda.

Xususan, o'tgan 2025-yilda 817,2 ming gektarda zamonaviy texnologiyalar joriy qilinishi hisobiga 2,3 mlrd. kub metr suv tejab qilingan. So'nggi besh yilda esa 1,2 ming km. kanallar va ulardagi 2,5 mingta gidrotexnika

inshooti rekonstruksiya bilan chiqarilib, 26 ta nasos stansiyasi to'liq modernizatsiyalanishi natijasida yiliga o'rtacha 1 mlrd. kub metr suv yo'qotilishining oldi olinmoqda.

Bu yil esa 503 ming gektar yerda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilib, 203 ming gektarda lazerli tekislash ishlari amalga oshirilishi hisobiga 2,5 mlrd. kub metr suv tejali hisobiga qutilmoqda.


Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq Ramazon hayiti munosabati bilan Afg'onistonga navbatdagi insonparvarlik yordami yetkazildi.

Faxr

AJDODLAR MEROSIGA EHTIROM



O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi xalqimiz ma'naviy hayotida hamda milliy o'zlikni anglash va boy tarixiy merosimizni dunyoga namoyon etishda g'oyat muhim voqea bo'ldi.

Ushbu markazning bunyod qilinishi, avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ajdodlarimiz boy tarixiy merosini chuqur o'rganish, asrash va uni jahon hamjamiyatiga keng targ'ib etish g'oyasining amaliy ifodasidir.

Ushbu muazzam markazni barpo qilish bo'yicha dastlabki tashabbus Prezident qarori bilan 2017-yilda boshlangan, 2018-yil Ramazon hayiti kunida esa uning tamol toshi qo'yilgan edi.

Bu davlatimiz rahbarining o'z tariximizga, buyuk ajdodlarimiz merosiga va xalqimizning ma'naviy idilzilariga bo'lgan yuksak hurmatining yorqin timsolidir. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi oddiy muzey yoki me'moriy inshoot sifatida emas, balki xalqimizning ko'p asrlik tarixi, ilm-fani, madaniyati, diniy-ma'rifiy qarashlari va jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasini namoyon etuvchi yirik ilmiy-ma'rifiy

majmua o'laroq shakllantirildi. Shu jihatdan, u Yangi O'zbekistonning o'z o'timishini chuqur anglagan holda kelajak sari dadil intilyotganini ifoda qiladi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat yurtimizdagi, balki butun mintoqadagi eng yirik ilmiy-ma'rifiy majmualardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Unda ajdodlarimizning ilm-fan, hadis, kalom, fiqh, falsafa, tibbiyot, astronomiya, me'morchilik va boshqa ko'plab yo'nalishlardagi ulkan merosi mujassam qilingan. Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'inoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi



rahnamoligida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy yuksalish, tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash va buyuk ajdodlarimiz merosini zamonaviy asosda targ'ib etish siyosatining mantiqiy davomidir. U yoshlarimizni ilmga, tafakkurga, vatanparvarlikka va milliy g'ururga chorlaydigan, ularni boy tariximiz va bebaho ma'naviy merosimiz ruhida tarbiyalaydigan ulug' dargoh bo'lib xizmat qiladi.

Shubhasiz, bu kabi ilmu ma'rifat o'choqlari davlatimiz rahbarining millatimiz tarixiy qudrati va ma'naviy salohiyatini dunyoga namoyon etish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlarining yorqin mevasi sifatida uzoq yillar davomida xalqimiz faxri bo'lib qoladi.

Bahrom ABDULLAYEV,
Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi.

allomalarimizning boy ilmiy-ma'naviy xazinasini aynan shu markaz orqali yangi avlodga va xalqaro jamoatchilikka yanada ta'sirchan tarzda taqdim etiladi.

Eng muhimi, ushbu markazning ochilishi Prezidentimiz rahnamoligida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy yuksalish, tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash va buyuk ajdodlarimiz merosini zamonaviy asosda targ'ib etish siyosatining mantiqiy davomidir. U yoshlarimizni ilmga, tafakkurga, vatanparvarlikka va milliy g'ururga chorlaydigan, ularni boy tariximiz va bebaho ma'naviy merosimiz ruhida tarbiyalaydigan ulug' dargoh bo'lib xizmat qiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

MAHALLA INSTITUTINING JAMIYATDAGI ROLI MUSTAHKAMLANMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Adolat" SDP fraksiyasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi bilan hamkorlikda 22-mart – Mahalla tizimi xodimlari kuni oldidan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini mustahkamlashda parlamentning o'ri" mavzida davra suhbatlari o'tkazildi.

Videokonferensaloqa shaklida o'tgan tadbirda deputatlar, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda Prezidentimiz rahbarligida mahalla institutini isloh qilish va uni xalq hayotiga yaqin, samarali tizimga aylantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilib, "yettillik" vertikal tizimi yaratildi. Bugun hamma soha va yo'nalishlar bo'yicha "mahalla yetiligi" samarali faoliyat olib borayotgan natijasida ko'plab masalalar ortiqcha qo'g'ozlik, yugur-yugurlarsiz mahallaning o'zida hal bo'lmoqda.

"Mahalla yetiligi" hamkorligida mahallalarni ishsizlik, jinoyatchilik va oilaviy ajrimdan xoli hududga aylantirishga doir ta'sirli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu orqali 5.2 mln. nafar aholi daromadli mehnatga jalb qilinib, 2 090 ta mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi. Ijtimoiy shartnomasida asosida ko'mak ko'rsatish orqali 311 mingta oila kambag'allikdan chiqarildi.

Shuningdek, aholi tomonidan yetishtiriladigan meva-sabzavat mahsulotlari eksporti bo'yicha 8 272 ta mahallada yil boshida reja qilinib, eksport 487,0 mln. dollarga yetkazildi. Kambag'al oilalar tomonidan 116 ming



233 tup limon, ko'cha yuzasidagi xonadonlar bo'yab 1 mln. 902 ming tup, aholi tomonidan atroflariga 3 mln. 450 ming tup uzum ko'chatlari ekildi.

"Mahalla byudjeti" tizimi orqali mahallalarga 577,9 mlrd. so'm tushirilib, har bir mahallada "yettillik" kollejalari asosida bu mablag'lar maqsadli va manzilli sarflandi. Mahallaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga 153,5 mlrd. so'm sarflanib, 284 ta mahalla binosi qurildi, 2 205 tasi esa ta'mirlandi.

"Muhtoj oilaga subsidiya berish" moduli orqali "yettillik"ning qarori asosida uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 671 nafar shaxsga 120 mln. so'mgacha bo'lgan jami 84 mlrd. 213 mln. so'mlik ipoteka kreditlari ajratilgan.

– Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi, – deydi qo'mita raisi o'rinbosari Abdullo Aslonov. – Shu bois so'nggi yillarda mahallaning jamiyati boshqaruvidagi o'ri va rolini oshirishga qaratilgan keng

ko'lami islohotlar olib borilib, soha rivojiga doir yuzga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham mahalla instituti maqomi mustahkamlandi. Bugun mahallalarda yuz berayotgan o'zgarishlar odamlarning hayotga intilishini oshirmoqda. Xalqimiz turmush darajasini butunlay o'zgarib, islohotlar samarasini har bir inson o'z kundalik hayotida his qilyapti.

Davra suhbatida so'z olingan keyingi yillarda mahalla institutini takomillashtirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini, joriy yilning "Mahallalarni rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi nafaqat mahalla infratuzilmasini yaxshilash, balki Yangi O'zbekiston islohotlarining har bir mahallaga, har bir xonadonga, har bir inson hayotiga kirib borishiga keng yo'l ochishini qayd etdi. Tadbirda deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan qiyomatliklar berildi.

Atrof-muhit muhofazasi:

IJRO MAS'ULIYATI VA SAMARADORLIK

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun ijrosi holatini Toshkent va Navoiy viloyatlari misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganish yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda deputatlar, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi mas'ul xodimlari hamda jurnalistlar qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish hamda aholining sog'lom va qulay ekologik muhitda yashash huquqini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. So'nggi yillarda mazkur sohada huquqiy bazani yanada mustahkamlash, ekologik nazoratni kuchaytirish va havo sifati monitoringini takomillashtirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi.

Xususan, "Qurilish maydonlarida chang va qum zararchalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablar belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi Qonunda qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik choralarini belgilandi.

Prezidentimizning "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha ishlarini jadallashtirish, avtomatik monitoring stansiyalarini yanada kengaytirish, sanitariya-muhofaza zonalarini tashkil qilish hamda davlat ekologik nazoratini kuchaytirish zarurligi yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Yakunda bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida qo'mita tomonidan tegishli qaror qabul qilindi.

ko'rsatishning I va II toifasiga mansub 122 ta, Toshkent viloyatida 835 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Atmosfera havosiga chiqariladigan tashlamalarni kamaytirish maqsadida qator sanoat korxonalarida chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish va modernizatsiyalash ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 2024-2025-yillar davomida qator sanoat korxonalarida yangi chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatib, mavjudlari modernizatsiya qilingan natijasida atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirishga erishilgan.

Navoiy viloyatida atmosfera havosi sifati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida qator sanoat korxonalarini va sanitar himoya zonalarida avtomatik monitoring stansiyalari o'rnatilgan hamda ularni tegishli idoralar axborot tizimlariga integratsiyalash ishlari olib borilmoqda.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun talablari ijrosini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotganini qayd etib, zamonaviy chang-gaz tozalash texnologiyalarini qo'llash ishlarini jadallashtirish, avtomatik monitoring stansiyalarini yanada kengaytirish, sanitariya-muhofaza zonalarini tashkil qilish hamda davlat ekologik nazoratini kuchaytirish zarurligi yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

"YO'L XARITALARI" BAJARILISHI – MUHOKAMA MARKAZIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda 2025-yil 2 – 4-iyul kunlari Prezidentimizning Ozarbayjon Respublikasiga davlat tashnafi doirasida erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifa va topshiriqlarning ijrosi holati yuzasidan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining axboroti eshittildi.

Qayd etilganidek, mazkur davlat tashnafi O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam asos yaratdi. Ushbu kelishuvlar siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, investitsiyaviy hamkorlikni faollashtirish, shuningdek, transport-logistika va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilayotgan ta'kidlandi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda Ozarbayjon Respublikasidan jalb etilgan investitsiyalar hajmi 271,8 mln. AQSH dollari tashkil qilib, 2024-yildagiga nisbatan qariyb uch barobar oshgan. O'tgan yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar

ayirboshlash hajmi 14,6 foiz o'sib, 307,2 mln. AQSH dollariga yetgan. Erishilgan kelishuvlarga muvofiq, 2030-yilga qadar o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 mlrd. AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, hukumatlararo komissiya yig'ilishlarini tashkil qilish, hududlararo biznes-forumlari o'tkazish, qo'shma investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilayotganini qayd etildi.

Eshittuvda deputatlar tomonidan qaror ijrosini ta'minlash masalasi atroflicha muhokama qilinib, ayrim chora-tadbirlar bo'yicha belgilangan ijtiro muddatlariga to'liq rioya etilmayotganini aytiladi.

Shuningdek, idoralararo muvofiqashtirish mexanizmlarini samaradorligini oshirish, kelishuvlarni bajarishda tizimli ishchi

mexanizmlarni yanada kuchaytirish zarurati ta'kidlandi. Bundan tashqari, loyihalar ijrosi yuzasidan monitoring va hisobdorlik tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Muhokama yakunida "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalar ijrosini jadallashtirish, mavjud kamchilik va to'siqlarni bartaraf etish hamda ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ko'rish zarurligi ta'kidlandi.

Mazkur yo'nalishda mas'ul vazirlik faoliyatini samaradorligini oshirish, bajarilayotgan ishlar ustidan parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

QUVONCH VA YANGILANISH FASLI

Yasharish va yangilanish fasli – Navro'zi olam o'zining ma'no-mazmuni, ko'rku tarovati, teran falsafasi bilan boshqa bayramlar orasida alohida o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida Navro'z shunday tasvirlanadi: "Eng avval Sharqdan bahoriy nasim (shabboda) esib keladi, bu olamni bezash uchun jannat yo'lini ochadi.

Qoq rang (ya'ni qor) ketib, yerga ifor to'ldi va hamma yoqni alvon-alvon rang egallaydi, chunki olam ham chiroyli bezanmoqni istaydi. Bahorning nasimi zerikarli qishni haydaydi, musaffo bahor yana o'zining hukmiga kiradi. Yapro'g'ini to'kkan daraxtlar tag'in yashil kiyinadi, oq, sariq, ko'k, qizil rang bilan bezanadi..."

Qadriyat

Haqiqatan ham ayni shu kunlarda yurtimizda bahorning iliq nasimi bilan birgalikda insoniylik, mehr-oqibat va bag'rikenglik ayomi – Navro'zi olam shukhi kezmokda. Ushbu qutlug' ayomni keksayu yosh – barcha birgalikda katta shodu xurramlik bilan kutib olmoqda.

Xalqimiz bu kuni nishonlashga azaldan alohida tayyorgarlik ko'radi. Davlatimiz rahbari imzolagan "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaror ham yurtodoshlarimiz orzilib kutayotgan yig'inish faslining asosiy shodiyonasini ko'tarinki ruhda nishonlashga zamin yaratmoqda.

Yurtimizda inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish, jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash yo'lida katta ishlar amalga oshirilyapti. Bularning barchasi qadimiy tarix va an'analarga ega sharqona yangi yilning insonparvarlik mohiyati, uning bag'rikenglik, saxovat va mehr-oqibat kabi azaliy qadriyatlarini ahmiyatini yanada yuksaltiradi. Aholi manfaatlarini va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, jamiyatning hech bir a'zosi ni mehr va e'tibordan chetda qoldirmaslik, shahar hamda qishloqlarimizni obod qilish, yer va suv resurslaridan, barcha tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish, joylarda ahilik, totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Navro'z xayru saxovat ishlariga chorlaydi. Shu kunlari nogironligi bor yurtodoshlarimizga, bemoru nochor kishilarga saxovat ko'rsatiladi, xolidan xabar olinib, imkon darajasida moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanadi. U shunchaki namoyish emas, balki odamlarning insoniy tuyg'ulariga



quvvat beruvchi, ularni yaqinlashtiruvchi, jipslashtiruvchi, yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlovchi bebaho omildir. Shu bois joylarda Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlarni yuksak darajada uyushtirishga, ularda yurtodoshlarimizning faol ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yilgi Navro'z muborak Ramazon hayiti bilan hamohang tarzda nishonlanishi uning insonparvarlik tamoyillarini yanada kuchaytirishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, Mehribonlik, Saxovat va Muruvvat uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning xolidan xabar olish, ular uchun bayram dasturxonlarini tashkil etish hamda turli xayriya tadbirlarini mahalla faollari, yoshlar va xotin-qizlar vakillari ishtirokida uyushtirish bilan o'tkazish nazarda tutilgan.

Ana shunday beqiyos fazilatlarini tufayli Navro'z nafaqat mamlakatimiz, balki butun Sharq olamida zamonalar osha bezavol yashab kelmoqda. Shuning uchun ham u yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarini bir o'lakdek birlashtiruvchi ezgulik ayomiga aylandi.

Navro'z insonni, umuman, tabiati mudom yangilanishga, yasharishga undaydigan, odamlar o'rtasida mehr-oqibat, insoniylik, ezgulikka xayrixohlik, muruvvat va saxovatni yanada mustahkamlashga chorlovchi betakror, ezgu xususiyatlarini bisyor bayramdir!

Mayra TOSHOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

O'rganish

Deputatlar markaz faoliyati bilan tanishdi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi a'zolari Sog'liqni saqlash vazirligi vakillari hamrohligida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazida bo'lib, uning faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi (RBIMM) 2004-yilda tashkil etilgan bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi bolalarning to'laqonli ijtimoiy-tibbiy moslashuvini hal etishga va ta'minlashga ko'maklashish sanaladi.

Ma'lum qilinganidek, markazga shu kunga qadar 90 mingdan ziyod murojalar kelib tushgan, shundan 55 mingdan ortig'i nogironligi bo'lgan bolalar va oilalarni tashkil etgan, 24 mingdan ziyod oilalar va bolalarga axborot-maslahat yordami, psixologik-pedagogik va ijtimoiy-huquqiy xizmatlar ko'rsatilgan. 11 mingga yaqin bolalar bilan diagnostik tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj 687 nafar bola uchun psixologik-pedagogik maslahatlar berilgan. 2025-yil davomida markaz va uning Farg'ona, Samarqand, Qarshi shaharlaridagi filiallari tomonidan 250 dan ortiq yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, nogironlik, zo'raonlikni boshdan kechirgan, ijtimoiy va huquqiy xavf ostidagi bolalar va ularning oilalariga amaliy yordam ko'rsatildi.

Uchrashuvda markaz tashkil etilgan kundun boshlab, 110 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar olib borilgan ta'kidlandi. Jumladan, tegishli vazirliklarning fundamental, amaliy, innovatsion tadqiqotlari, shuningdek, Oliy Majlis huzuridagi NNNTi va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'laridan 6 ta loyiha, 8 ta davlat ijtimoiy buyurtmasi va qator grantlar amalga oshirildi.

Deputatlar markaz xodimlari bilan ochiq muloqotda bo'lib, ularning sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalarini eshittirdi.



Ra'no ASTANAGULOVA,
qo'mita a'zosi:
– Markaz faoliyati bilan tanishuvimiz juda samarali bo'ldi. Bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar alohida ehtiyojli bolalarning oilaga, jamiyatga tezroq moslashishini, oilalarga zarur yordam ko'rsatishini ta'minlashga xizmat qiladi. Albatta, amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bolalarni asrab-avaylash, huquqlarini ta'minlashda muhim bo'lib, bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish esa hayotiy zarurat. Shu bois soha vakillari bilan bolalarning ijtimoiy himoyasiga oid muhim masalalar yuzasidan suhbatimiz qizg'in kechdi.

Uchrashuv davomida Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan markazga kitoblar topshirildi.

"Xalq so'zi".

Ustyurt hududida olib borilgan geologik-texnik tadbirlar natijasida G'arbiy Quyi Surgil koniga qarashli 17-baholash ishlatish qudug'idan katta bosimda sanoat miqyosidagi tabiiy gaz oqimi olindi.

INSON KAPITALI – ENG KATTA BOYLIK

Mamlakatimizda bir necha yillardan buyon xomashyoga tayanilgan iqtisodiyotdan qo'shimcha qiymat yaratadigan, yuksak bilim va yuqori texnologiyaga asoslangan iqtisodiyot sari dadil qadam tashlanmoqda. Bu intilishlar tashqi bozorlarda yurtimizda ishlab chiqarilgan milliy mahsulotlarga talabning kuchayishiga puxta zamin yaratmoqda.

Nuqtai nazar

Prezidentimizning 2026-yil 16-fevralda qabul qilingan "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, 2023-yilda imzolangan va jadal ravishda amalga oshirib kelinayotgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilab olingan qator maqsadlarga yaqin kelajakda, xususan, joriy yilda erishish imkoniyati yuzaga keldi. Jumladan, 2030-yilga borib mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 160 mlrd. AQSH dollariga yetkazish reja qilingan edi. O'tgan 2025-yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotimiz 145 mlrd. AQSH dollaridan oshdi va joriy yilning o'zida YAIM hajmini 167 mlrd. dollariga yetkazish bo'yicha amaliy sa'y-harakatlar boshlandi. Bu natijalar mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlar sari jadal sur'atlarda intilyotganidan dalolat beradi.

Shu bois taraqqiyotning yangi marraharini mo'ljallab olish, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda barqaror rivojlanishning yaqin besh yildagi istiqbolini belgilash zaruriyatini paydo bo'ldi. Endilikda ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulot hajmini barqaror tarzda oshirib borish va 2030-yilda 240 mlrd. AQSH dollariga yetkazish borasida qat'iy sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining farmoni bilan yangidan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga e'tibor qaratar ekanimiz, unda barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash

sohasiga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Ushbu yo'nalishda belgilangan maqsadlarning o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib o'tish muhim.

Birinchidan, yangilangan Strategiyada har bir maqsadni aniq va tegishli muddatda amalga oshirish, sarflanadigan mablag' miqdori hamda mas'ul vazirlik va idoralar qat'iy belgilab qo'yildi. Shuningdek, barcha sohalarni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish – kelgusi yillarda iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishi sifatida ko'rsatib o'tildi. Shu

“ Ta'kidlash joizki, so'nggi to'qqiz yil davomida mamlakatimizning barcha iqtisodiyot tarmoqlariga 130 mlrd. AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi. O'tgan 2025-yilning o'zida mamlakatimizga 140 mlrd. dollarlik investitsiyalarni jalb etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. ”

jihatdan olganda, texnologik va innovatsion o'sish modeli aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki samarali iqtisodiyotni barpo etish orqali aholi daromadlari ko'payadi, ijtimoiy sohalarga ko'proq investitsiya yo'naltiriladi. Shu tariqa, Yangi O'zbekistonda innovatsiyoga tayanilgan iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti va barqaror kelajagini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va yuqori texnologik qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ustuvor ahamiyat qaratilganini muhim yangilik bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi to'qqiz yil davomida mamlakatimizning barcha iqtisodiyot tarmoqlariga 130 mlrd. AQSH



dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi. Yangi O'zbekistonda IT-talim, startaplar, ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish, ko'plab zamonaviy ilm-fan maskanlarining ochilishi kundalik hayotimizda odatiy yumushlarga aylanmoqda. Bu yoshlarni yangilik yaratishga, tadbirkorlikka va mustaqil fikrlashga rag'batlantiradi, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi esa iqtisodiyotni barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqadi.

Mamlakatimizda jadal sur'atlarda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar o'z samarasini bermoqda. Chunki global raqobat sharoitida asosiy boylik tabiiy resurslar emas, balki yuksak bilimli, tegishli malakaga ega va tafakkuri keng inson kapitali hisoblanadi. Hozirgi paytda ta'lim tizimini yangilash orqali jamiyatning intellektual salohiyati oshirib borilyapti. Bu, o'z navbatida, barqaror iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy bosqichdagi texnologik va innovatsion o'zgarishlar tez sur'atlar bilan davom etayotgan hozirgi paytda ta'lim tizimining mehnat bozori talablariga moslashishi juda muhim. Chunki mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi izchil islohotlar raqamli ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilmoqda. Bu, albatta, yosh avlodni sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va innovatsiyalarga tayyorlash uchun puxta zamin yaratadi.

Zotan, milliy ta'lim dasturlarimizda belgilangan kabi nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'un olib borilayotgani iqtisodiyot sohasida samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Buning samarasi o'laroq mamlakatimizda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyati yil sayin kengayib boryapti.

Aktam BURHONOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Mutolaa TAFAKKUR VA TARAQQIYOT TALQINI

Samarqand davlat universiteti muassisligida chop etiladigan "Samarqandim" jurnalining 2025-yildagi 4-soni o'quvchilarda qiziqish uyg'otmoqda.

Yangi son o'z mazmun-mundariyasi, yorqin dizayni va boy fotomateriallari bilan nafaqat axborot beradi, balki o'quvchini fikrga chorlaydi, tarix va bugun o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni teran his etishga undaydi.

Chunki, tarix – bu faqat o'tmish sahifalari emas, u xalqning xotirasi, millatning ma'naviy tajribasi va kelajakka yo'l ko'rsatuvchi ma'rifat manbai. Shu ma'noda, "Samarqandim" jurnalining yangi soni mamlakatimiz hayotidagi muhim voqealarni o'ziga xos talqinda yoritib, Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyot ruhini ifoda etadi.

Jurnalning mazkur sonida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'tgan yili 18 – 20-dekabr kunlari Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifiga alohida o'rin berilgan. Zero, ushbu tarixiy safar nafaqat ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi, balki ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlik uchun ham mustahkam poydevor yaratdi. Tashrif jarayonlarini yoritgan fotosuratlar, ikki tomonlama muzokaralarda erishilgan kelishuvlar haqidagi materiallar, yurtimiz ziyolilari, Kunchiqar mamlakatda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz, shuningdek, Yaponiyaning siyosiy doiralari vakillari, davlat arboblari, iqtisodiyot, biznes hamda ta'lim sohalari namoyandalari munosabatlari o'quvchiga voqealar ruhini yanada yaqindan his etish imkonini beradi.

Jumladan, Yaponiyaning Tottori universiteti prezidenti, professor Tasuku Xarada shunday yozadi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvimiz natijalarini yuksak baholayman. Muzokaralar konstruktiv va mazmunli ruhda kechdi. Ayniqsa, ta'lim, fan va innovatsiya sohalarida muhokama qilingan tashabbuslarining strategik ahamiyatini alohida ta'kidlamogchiman... Samarqand davlat universiteti bilan uzoq yillik samarali hamkorligimizni mamnuhiyat bilan qayd etaman".

Jurnal sahifalarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar keladigan xorijiy sayyohlar sonini 100 ming nafarga yetkazish va "O'zbekiston bo'ylab sayohat qili" dasturi doirasida 530 ming ichki sayyohning ziyoratlarini amalga oshirish mo'ljallangan. 10 ta mehmonxona, mehmon uylari, xostellar va boshqa joylashtirish maskanlari faoliyati ham yo'lga qo'yiladi.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

hamjamiyat tomonidan ham yuksak baholanayotganini ko'rsatadi. Bu esa Yangi O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotganining yana bir dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyevaning taniqli bloger va jurnalist Kirill Altmang bergan intervyusidan keltirilgan iqtiboslar ham mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Jurnalning yana bir e'tiborli jihati ilm-fan mavzuga bag'ishlangan materiallardir. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, O'zbekiston Qahramoni Shavkat Ayupovning "Fan – bu ijob, ayniqsa, matematika fanl..." sarlavhali maqolasi ilm va tafakkurning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida teran mulohazalarni o'rta tashlaydi. Zero, fan – bu faqat bilim emas, balki inson tafakkurining eng yuksak ijodiy namoyoni.

Tarixchi olimlar qalamiga mansub "Madinada Boqiya, Makkada Muallo, Samarqandda Chokardiza..." sarlavhali maqolada esa qadimiy Samarqandning ulug'vor o'tmishi haqida hikoya qilinadi. Chokardiza qabristonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida islom huquqshunosligining buyuk allomasi Burhoniddin Marg'inoniyning qabri aniqlangan haqidagi ma'lumotlar jurnalkonlar qalbidagi bugungi yutuqlarga xayrixohlik, buyuk o'tmishga hurmat, yurtimiz zaminida yashab o'tgan ulug' allomalar merosiga ehtirom tuyg'usini yanada oshiradi.

Shuningdek, jurnal sahifalarida akademik Akmal Saidov tarjimalari, atoqli yozuvchi va jurnalist Xurshid Do'stmuhammad bilan suhbat, Turkiya Yozuvchilar uyushmasi Ko'nyo bo'limi rahbari, shoir Ahmet Ko'sao'g'lining Samarqand haqidagi taassurotlari ham chop etilgan. Bu materiallar nafaqat adabiy va ma'naviy dunyoqarashni boyitadi, balki yurtimizning jahon madaniy makonidagi o'rnini yanada yorqin namoyon etadi.

Quvonarlisi, jurnalning ingliz tilidagi nusxasi ham nashr etilgan. Bu esa Samarqandning tarixiy merosi va Yangi O'zbekistonning bugungi yutuqlarini jamoatchiligiga kengroq tanitishga xizmat qiladi.

Shubhasiz, "Samarqandim" jurnali nafaqat axborot manbai, balki tarix, ma'rifat va tafakkur uyg'unlashgan ma'naviy maydon sifatida o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladi.

"Xalq so'zi".

Saxovat

TADBIRKORGA SAVOB AMALLAR YARASHADI

"Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay", deya yozganida hazrat Navoiy ming karra haq. Zotan, dunyoda ehtiyojmand, yordamga muhtoj, nogironligi bor kishilarga xayru saxovat ko'rsatish, og'irini yengil qilishning savobini o'lchay oladigan tarozi yo'q.



Ramazon ayyomi hamda Navro'z bayrami arafasida butun mamlakatimizda bo'lgani kabi Buxoro tumanida ham ana shunday savob ishlar amalga oshirilmoqda. Shu kungacha qadar ijarama-ijara yurgan, boquvchisini yo'qotgan, norasida farzandlari bilan qiyalib yashayotgan, tularni "Mening ham o'z boshpanam bo'larmikan?" degan o'ylar bilan o'tkazgan beshta oilaga yangi xonadonlar kaliti topshirildi. Bu xayrli, unutilmas amal tashabbuskori "Jannat ishida" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Feruz To'rayev boshchiligidagi saxovatpesha tadbirkorlar bo'ldi.

Bog'idasht mahallasida tashlandiq yotgan yer o'rmi qad rostlagan qo'sh qavatlil mo'jaz uyda umrguzarolik qilish uchun barcha qulaylik yaratilgan. Turarjoyda nafaqat yashash, balki mehnat qilib, ro'zg'orni butlash imkoniyati ham mavjud. Gap shundaki, uy yerto'lasida qadoqlash sexi joylashgan. Boshqacha aytganda, ayollarbop ish o'rnlari hozirlangan.

Yangi uy-joylarni egalari taqdimotiga bag'ishlangan marosimda xalqimizga xos ezuq fazilatlar davomchilari hamda boshpanali bo'lgan oilalar sha'niga iliq so'zlar aytiladi.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

EKOTURIZM MANZILLARI SAYYOHLARNI CHORLAYDI

Sirdaryo daryosining Sirdaryo, Sayxunobod va Guliston tumanlari hududlaridan o'tgan qismida sohil bo'yab ekoturizm manzillari ko'paymoqda. Kamolot, Ahillik, Sohilobod, O'rikzor mahallalarida amalga oshirilgan loyihalar bunga yaqqol misol bo'ladi.

Imkoniyat

– Prezidentimizning 2025-yil 6-martda qabul qilingan "Sirdaryo viloyatida ishbilarmonlik muhiti, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Sirdaryo bo'yalarida turizmi rivojlantirishga e'tibor ham kuchaydi, – deydi Sirdaryo viloyati turizm boshqarmasi bosh mutaxassisi O'tkir



Umurzoqov. – Yangi-yangi ekoturizm manzillari paydo bo'lmoqda va ushbu maskanlarda barcha sharoit yaratilgan. Xususan, daryoning Guliston tumanidan oqib o'tgan qismida tashkil etilgan kapsula uylarga sayohatchilar joylashib,

daryo bo'yida bir necha kun dam olish va qayiqda sayr qilishi mumkin. Shu tumanidagi Sohilobod mahallasi negizida esa viloyatda birinchi "Turizm qishlog'i" ochiladi.

E'tiborlisi, joriy yilda Sirdaryo viloyatiga keladigan xorijiy sayyohlar sonini 100 ming nafarga yetkazish va "O'zbekiston bo'ylab sayohat qili" dasturi doirasida 530 ming ichki sayyohning ziyoratlarini amalga oshirish mo'ljallangan. 10 ta mehmonxona, mehmon uylari, xostellar va boshqa joylashtirish maskanlari faoliyati ham yo'lga qo'yiladi.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

REKAMA

"O'ZSANOATQURILISHBANK" ATB AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI (MASOFADAN) O'TKAZISH TO'G'RIDA

XABARNOMA

Hurmatli «O'zbekiston sanoat qurilish banki» aksiyadorlik tijorat banki aksiyadori!

Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy manzili bo'yicha joylashgan "O'zsanoatqurilishbank" ATB (korporativ veb-sayt: www.sqb.uz, e-mail: info@sqb.uz), sizga 2026-yil 8-aprel kuni Toshkent vaqti bilan soat 11.00da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati – http://evote.uz/ orqali bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bo'lib o'tishini ma'lum qiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. "O'zsanoatqurilishbank" ATB ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risida;
2. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Kengashi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risida;
3. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risida;
4. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Kengashining

1 nafar a'zosi vakolatlarini muddatidan avval tugatish to'g'risida;

5. Bank Kengashida bo'sh bo'lgan o'rinlarga yangi a'zolari saylash to'g'risida.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabardor qilish uchun ro'yxatni shakllantirish sanasi: 2026-yil 16-mart.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reestri tuziladigan sana: 2026-yil 3-aprel.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga oid hujjatlar bilan bankning "www.sqb.uz" korporativ veb-sayti orqali tanishish yoki "info@sqb.uz" elektron manzili orqali so'rov yuborishingiz mumkin.

Yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (http://evote.uz) foydalangan holda 2026-yil 8-aprel kuni Toshkent

vaqti bilan soat 10.00 da boshlanib, 11.00 da to'xtatiladi.

Murojaat uchun telefonlar:

78-120-45-00 (ichki 85-55); (+99894) 711-13-75.

«Elektron Realtor» MCHJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkilloshiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi

Erieltor

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan "O'zsanoatqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani, "Sariqo'rg'on" MFY, Tegirmonboshi ko'chasi, 15-uyda joylashgan sovitkichli omborxonasi binosi sotiladi.

– Sotish sharti va narxi bilan "www.e-rieltor.uz" sayti orqali tanishishingiz mumkin.

– Savdoga qo'yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko'rish imkoniyati bor.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar "e-rieltor.uz" platformasi orqali ariza berishlari kerak.

Call-markaz: +99855-517-22-20.
Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

Qashqadaryo viloyatida joriy yilda o'zlashtiriladigan 5,2 ming gektar yer maydonlarida chorva ozuqasi yetishtiriladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulkiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.30 **1 2 3 4 5 6**